

O'QUVCHILARNI FANGA BO'LGAN QIZIQISHINI UYG'OTISHNING SAMARALI METODLARI

Shodmonova Jasmina Anvarovna

Samarqand davlat chet tillar instituti 2- bosqich talabasi

e-mail:jasminsh20.05od@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sh.O.Mamayoqubova

e-mail:mamayoqubovashahlo@gmail.com

ANNOTATSIYA. O'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi albatta o'qituvchilarga bog'liqdir.Chunki,ularning dars davomida olib boradigan metodlari o'quvchini qay darajada fanni o'zlashtirishiga sababchi bo'ladi.O'qituvchi o'quvchilarni dars davomida ruhlantirib ,bu fanni chuqurroq o'zlashtirishga poydevor yaratadi.Buning uchun ,yangi samarali ped-metodikalari qo'l keladi.Ushbu maqola ,o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish uchun kerak bo'ladigan metodlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, pedagogik tushunchalar, “Chumoli “ metodi, jonlashtirish ,tasvirlash, aktyor, rejissor

Аннотация. Интерес учащихся к науке зависит от учителей, поскольку методы, которые они используют на уроке, определяют степень усвоения учащимся науки.Преподаватель во время урока вдохновляет своих учеников, создавая основу для более глубокого освоения данново предмета .Для этово пригодятся новые эффективные педмедики.В этой статье рассматриваются методы необходимые для повышения интереса учащихся к науке.

Ключевые слова: инновации, педагогические концепции, метод “муравей” ,анимация, изображение, актер, режиссор

Annotation. The students' interest in science depends on the teachers , because the methods they use during the lesson will determine the extent to which the student learns the science. The teacher inspires his students during the lesson, creating a foundation for

a deeper mastery of this subject. For this, new effective ped-methods come in handy .This article covers techniques needed to increase students' interest in science.

Key words: innovations, pedagogical concepts, “ant” method, animation, depiction, actor, director

Hozirda maktab ta'lim tizimiga juda tez kirib kelayotgan yangi texnologiyalar innovatsiyalar , pedadgogik tushunchalar ,yangi metodlarni o'qituvchi tomonidan o'zlashtirib va ularni dars davomida qo'llab borilishi ,ta'lim mazmunini tubdan o,zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda ayniqsa chet tilini o'rganish muhim omilga aylanmoqda. Til o'rganish inson hayotida juda muhim omillardan hisoblanadi. Muloqo vositasi hisoblanadigan tilni tabiiy muhitda yoki dars jarayonlarida amaliy egallash mumkin. Tilning grammatik hodisalariga doir bilimlarni nazariy jihatdan o'rganiladi. Har bir o'qituvchi dars jarayonida o'zlarini “aktyor “emas, aksincha, “rejissor “ bo'lishlari kerakligini anglashi lozim. Chunki, aktyorlar bo'ladigan voqeani kuzatuvchiga tasvirlab bersa, rejissor esa unga o'zidagi bor hissiyotlarni qo'shib , jonlantirib kuzatuvchiga yuqtirishga, bo'layotgan hodisalarni kuzatuvchiga his qildirishga sababchi bo'ladi. Shuning uchun, o'z fannini sevuvchi o'qituvchilar darsni tashkil etishda o'quvchilar qiziqishini orttirish, darslarni jonlantirish uchun turli metodlardan yoki o'yinlardan foydalanishi kerak. Dars jarayonida eng ko'p qo'llanilgan metod bu o'quvchilarning diqqatini, fikrini jamlovchi, qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan savollar asosida olib borilish hisoblanadi.

Quyidagi metod ham dars jarayonida foydalanishi mumkin bo'lgan metodlar sirasiga kiradi.

“Chumoli “metodining tuzilmasi.

“Chumoli” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat :

1.Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.

2.O'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. O'qituvchi o'quvchilar uchun savollar varaqasini tashkil qilishi va qancha savol bo'lsa, shuncha karochkalar tayyorlab olishi kerak. Bu kartochnikalarning har biriga bir raqami yozilgan bo'lishi yoki tayyor holda bo'lishi lozim.

4. O'qituvchi bir tomonga o'quvchilar ikkinchi tomonga turib oladi ya'ni o'z joylarini bilib turib olishlari kerak.

5. O'qituvchi savollarni o'qib beradi, o'quvchilardan qay biri savolga to'g'ri javob bersa, o'sha o'quvchiga tayyorlab qo'yilgan kartochnikadan bittasini taqdim qiladi, mashg'ulot shu tartibda davom etadi.

6. Kartochnikalardan olgan o'quvchilar bir qadam o'qituvchining oldiga siljib boraverishadi.

7. Mashg'ulot oxirida kim ko'p kartochna to'plagan bo'lsa, uni o'qituvchi rag'batlantiradi.

Ushbu metod orqali o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali o'quvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda o'quvchi o'zlari bergan javoblarini baholashlari va o'qituvchi ham o'quvchilarni obyektiv baholashi mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda bilimlar ko'p bo'lib, ularni egallash uslublari ham kundan kun rivojlanib, tubdan o'zgarib bormoqda, ularn nafaqat zamonaviy zarur bilimlar yig'indisida, balki yangi bilimlarni o'rganish usullari ham o'zgarmoqda. Ya'ni boshqa davlatlardan yangi uslublar o'rganilib, o'zimizda bu usullarni qo'llash metodikalari yo'lga qo'yilmoqda. O'qitish samaradorligini oshirishda eng ko'p kerak bo'ladigan omillardan biri bu ko'rgazmalilikdir. Bu tamoyil o'qitish jarayonida samarali usullardan hisoblanib, o'quvchilarni bilish, ko'rish, eshitish, tushunish, idrok etish, sezish, his qilish kabi sezgi a'zolarining bir yo'la bilish ob'yekti stida safarbar qilinishini talab etadi. Bu tamoyil o'qitish jarayonida kengroq imkoniyatlardan foydalanishni yo'lga qo'yadi. Ko'rgazmalilik deganda darsning boshidan oxiriga qadar bu usuldan foydalanishni nazarda tutmaydi. Aksincha, ko'rgazmalilikka qo'yiladigan talablardan biri shuki, biror bir masalaga to'g'ridan to'g'ri aloqador bo'lmagan mayda detallar bilan talabalar

e'tiborini asosiy muammodan chalg'imasligi lozim . Shuningdek , ko'rgazmali darslar odatda talabalarga katta qiziqish uyg'otishini ham inobatga olish mavzudan holi emas.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Chet tili o'qitish metodikasi/ Jamol Jalolov.-T. :” O'qituvchi “ nashriyoti , 2012 . -4 –b.
2. Pedagogik texnologiyalar / S.I.Mirhayitova. –Toshkent, 2020. -195-b.
3. Sh.O.Mamayoqubova. “Pedagogical conditions of professional development of higher Educational establishment teacher” Xalqaro so'z san'ati jurnali. ISSN 2181-9297Doi Journal 10.26739/2181-9297. 2022 5 son, 48 p
4. Dunyo tillari haqida qiziqarli faktlar (google ma'lumoti).
5. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi/ Tojiboyeva . D., Yo'ldoshev.A. – Toshkent, 2009. -189-b.
6. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi / Nishanova. Z. , Alimova. G. –O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent, 2006.-140-b.